

STATISTIK KO'RSATKICHLAR TURLARI VA TASNIFI

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

“Iqtisodiy tahlil va statistika” kafedra dotsenti

Babanazarova Sevara Abdinazarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

O'rinboyeva Durdona Oybekovna

Annotatsiya. Maqolada statistik ko'rsatkichlar haqida batafsil ma'lumot berilib, ularning turlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, statistik ko'rsatkichlarning mazmuni, mohiyati va ahamiyati tushuntirib beriladi. Unda statistik ko'rsatkichlarning turlari hamda ularning tasnifi izohlanadi, nisbiy ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar anglab yetilib, chuqur o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Sifat, miqdor, statistik ko'rsatkich, mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar, taqqoslash va solishtirish, to'g'ri va teskari ko'rsatkich.

Kirish. Statistik ko'rsatkichlar ma'lum bir sifatni, shuningdek, aholi yoki mulkning miqdoriy tavsifini ifodalaydi. Ushbu tushuncha sifat va miqdor jihatlarining o'zaro birligi asosida shakllanadi. Sifat jihatida o'rganilayotgan belgi bilan belgilanib, u orqali hodisa yoki jarayonning mazmuni haqida xulosa chiqarish mumkin. Miqdoriy jihat esa uning son bilan ifodalangan qiymatini ko'rsatadi. Statistik ko'rsatkichlar tizimi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta elementlar majmuasidan iborat. Ular jamiyatda yuz berayotgan jarayon va hodisalarning sifat hamda miqdor tomonlarini ma'lum bir joy va vaqt sharoitida o'rganish va tahlil qilishda qo'llaniladi. Statistik ko'rsatkichlarning muhim xususiyati ularning umumlashtiruvchi xarakterga ega ekanligidir, bu esa ularni alohida, individual qiymatlardan farqlab turadi.

Asosiy qism. Statistik ko'rsatkich tushunchasi turli olimlar tomonidan har xil talqin etiladi. Jumladan, I. P. Suslov statistik ko'rsatkichlarni statistika fanining asosiy tushunchalari sifatida baholab, ularni ilmiy tahlilning muhim vositasi deb hisoblaydi. N. Soatov esa statistik ko'rsatkichni o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarning holatini

belgilovchi me'yor sifatida izohlaydi. Meresti fikriga ko'ra, statistik ko'rsatkichlar hodisa va jarayonlarning mazmuni hamda holatini adekvat, ya'ni to'liq va aniq aks ettiruvchi miqdoriy ifodalar hisoblanadi. Ushbu ta'rif o'zining aniqligi va mazmunan mukammalligi bilan ajralib turadi hamda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan keng qo'llab-quvvatlanadi.

Statistik ko'rsatkich – ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarning miqdoriy tomonini (hajm, daraja, tarkib, o'zgarish, bog'liqlik) muayyan vaqt va hudud kesimida ifodalovchi umumlashtirilgan o'lchovdir. Ular boshqaruv, rejalashtirish, nazorat, prognoz va tahlil uchun asos bo'ladi.

Statistik ko'rsatkichlarning turlari hodisalar kabi ko'p bo'lganligi sababli, ularni biror belgilari bo'yicha tasniflash lozim bo'ladi. Statistik ko'rsatkichlar voqea – hodisalar to'plamini qamrab olishiga qarab, makroiqtisodiy va mikroiktisodiy ko'rsatkichlarga guruhlanadi. Mikroiktisodiy ko'rsatkichlar faoliyat yurutuvchi sub'ektlarda (firma, korxona ularning bo'limlari, birlashmalar, korporatsiyalar va shu kabilar) sodir bo'layotgan jarayonlarni ifodalaydi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mamlakat yoki uning hududlaridagi ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlar holati va xarakatini ifodalaydi. Angren ko'mir konida qazilgan ko'mir, biror fermer xo'jaligida terilgan paxta, biror korxonada ishlayotgan xodimlar soni va shu kabilar mikroiktisodiy ko'rsatkichlardir. Mamlakat miqyosida qazib olingan ko'mir, viloyat yoki mamlakat miqyosida tayyorlangan paxta, ishlayotgan xodimlar soni va shu kabilar makroiqtisodiy ko'rsatkichlardir. Statistik ko'rsatkichlar miqdori raqamlar bilan ifodalanadi. Miqdorlar mohiyatiga ko'ra mutloq, nisbiy va o'rtacha miqdorlarga bo'lishi mumkin. Ularning mohiyati keyingi savol va mavzularda yoritiladi. Statistik ko'rsatkichlar olish usuliga qarab birlamchi va ikkilamchi (hosilaviy) ko'rsatkichlarga guruhlanadi. Birlamchi ko'rsatkichlar hodisa va jarayonlarni kuzatishdan olingan, hamda ular asosida jamg'arilgan ko'rsatkichlardir. Ikkilamchi (hosilaviy) ko'rsatkichlar birlamchi ko'rsatkichlar asosida matematik amallarni qo'llab topilgan, hosil bo'lgan ko'rsatkichlardir. Mehnat unumdorligi, hosildorlik, korxona (firma) rentabelligi kabi ko'rsatkichlar ikkilamchi (hosilaviy) ko'rsatkichlarga misol bo'ladi. Demak, statistik ko'rsatkichlarda: ko'rsatkichlarning nomi (voqea – hodisalar, ob'yektning nomi), ularning qachon, qayerda bo'lganligi, o'lchov birligi va raqamda ifodalangan voqea – hodisaning miqdori bo'lar ekan. Iqtisodchi mutaxassislar bu raqamlarni o'qib, ularni tilga

kiritib, mohiyatiga tushunib, hodisa va jarayonlarning holatiga va davr mobaynida qanday o'zgarganligiga baho berar ekan. Ijtimoiy va iqtisodiy hodisalar, jarayonlar tegishli ko'rsatkichlarda ifodalanadi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov o'z chiqish va asarlarida jamiyat taraqqiyoti yo'lida dolzarb muammolarni hal etishda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislar yetishmasligi, shuningdek, yangicha fikrlash va zamonaviy tafakkurning to'liq shakllanmaganligi jiddiy to'siq bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlab o'tgan. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, xususiy mulkning iqtisodiy jarayonlardagi o'rni va ta'sirini yanada kengaytirish, ishbilarmonlik hamda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hayotning o'zi talab etayotgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu ko'rsatkichlar turli xil miqdorlarda, ma'lumotlarda berilib, hujjatlarda qayd qilinadi. Statistik kuzatish natijasida miqdorlar yig'ilib, tegishli ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlanib, o'rganiladi. Miqdorlarda ifodalangan iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni umumlashtirib, tegishli xulosalar chiqarish statistikaning asosiy vazifasidir. Xodisa va jarayonlar dastlab mutloq miqdorlarda qayd qilinadi, so'ngra esa ular asosida nisbiy va o'rtacha miqdorlar hisoblab topiladi. Demak mutloq miqdorlar har qanday statistik ko'rsatkichlarning dastlabki (boshlang'ich) shaklidir. Miqdorlar qo'shish, ayirish, o'lchash kabi amallarni bajarish bilan aniqlanadi. Aholining umumiy soni, shu jumladan erkaklar va ayollar soni, korxonalarda xodimlar soni, ishlab chiqarilgan stanoklar soni - "bir", "ikki", "uch" kabi sonlarda qayd qilinadi. Ularning to'plamlari ming kishi, ming dona kabi son ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Qurilgan yo'llar uzunligi, daryolarning uzunligi, bosib o'tilgan yo'l - metr, kilometr kabi uzunlik o'lchovi birliklari bilan ifodalanadi. Murakkab xodisalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar kompleks o'lchov birliklarida ifodalanadi. Bunday hodisalar ikki va undan ortiq o'lchov birliklarining o'zaro birikmasi bilan tavsiflanadi. Masalan: tashilgan yuk - tonna/ kilometrda, ishlab chiqarilgan elektr quvvati kilovatt - soatda, xodimlarning ishlagan ish vaqtlari - kishi / soatda. Lekin natura o'lchovida xususiyatlari bilan har xil bo'lgan hodisa va jarayonlar umumlashtirib ko'rsatilmaydi.

Shuning uchun ham qiymat (pul) o'lchovi ishlatiladi. Barcha hodisa va jarayonlarni pul o'lchovida ya'ni yagona o'lchovda umumlashtirib ko'rsatish mumkin.

Statistika tizimi qanchalik haqqoniy, shaffof va ochiq bo'lsa, amalga oshirilayotgan islohotlar ham shunchalik asosli, to'g'ri va samarali bo'ladi. Aynan shu maqsadda so'nggi uch yil davomida statistika tizimini takomillashtirish yo'nalishida bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. Xususan, inflyatsiyani hisoblash metodologiyasi xalqaro standartlar talablariga moslashtirildi, statistik kuzatuvga olinadigan tovarlar va xizmatlar tarkibi sezilarli darajada kengaytirildi. Shuningdek, davlat byudjeti, tashqi qarz hajmi, oltin-valyuta zaxiralari hamda tabiiy boyliklarga oid moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar ochiq va oshkora tarzda e'lon qilinib, jamoatchilik uchun qulay axborot muhitini yaratishga erishilmoqda.

Statistik ko'rsatkichlar ijtimoiy – iqtisodiy voqea – hodisalarning miqdoriy tomonlarini ularning sifat mohiyati bilan uzviy bog'liqlikda ifodalaydi. Voqea – hodisalarning miqdoriy tomoni deganda, ularning soni, hajmi, o'lchami, qiymati kabi miqdorlar tushuniladi. Sifat esa voqea – hodisalarning ichki qiyofasi, mohiyatidan kelib chiqadi. Statistika ko'rsatkichlar miqdoriy va sifat tomondan chambarchas bog'liqlikda o'rganiladi. Ijtimoiy – iqtisodiy voqea – hodisalar ma'lum makon va zamonda sodir bo'ladi.

Masalan, konditer fabrikasi bilan supermarket o'rtasida tuzilgan shartnomaga muvofiq, konditer fabrikasi bir chorak davomida supermarketga 12 tonna shokolad va 9 tonna karamel mahsulotini yetkazib berishi lozim edi. Amalda esa yetkazib berilgan mahsulot hajmi mos ravishda 10 tonna shokolad va 11 tonna karamelni tashkil etdi. Ushbu ma'lumotlar asosida shartnoma majburiyatlarining bajarilish darajasi hisoblanganda, shokolad bo'yicha bajarilish ko'rsatkichi 83,3 foizni tashkil etib, reja 16,7 foizga bajarilmaganligi aniqlanadi. Karamel mahsuloti bo'yicha esa bajarilish darajasi 122,2 foizni tashkil etib, belgilangan reja 22,2 foizga ortig'i bilan bajarilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, konditer fabrikasi shokolad yetkazib berish bo'yicha shartnoma majburiyatlarini to'liq bajarmagan bo'lsa-da, karamel yetkazib berish bo'yicha belgilangan hajmdan ortiq mahsulot yetkazib bergan.

Xulosa. Hayotiy tajriba hamda ko‘plab statistik-ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘rtacha ko‘rsatkichlarni hisoblash jarayonida mutlaq va nisbiy miqdorlarni birgalikda qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Chunki alohida olingan nisbiy miqdor o‘rganilayotgan hodisa yoki jarayon haqida to‘liq va aniq tasavvur bera olmaydi, xuddi shuningdek, faqat mutlaq miqdorlardan foydalanish ham yetarli bo‘lmaydi. Shu sababli statistik tahlilda ushbu ikki turdagi miqdorlar o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilgandagina obyektiv va ishonchli xulosalar chiqarish mumkin bo‘ladi.

Statistika fanida ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tizimli ravishda o‘rganish maqsadida maxsus tasniflar tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu tasniflar hodisa va jarayonlarni guruhlash, solishtirish va tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi. Ularni elektron hisoblash mashinalari yordamida samarali shakllantirish va qayta ishlash uchun xalqaro hamda milliy tasniflagichlar yaratilgan bo‘lib, bu esa statistik ma’lumotlarning aniqligi va taqqoslanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 Tuxliyev N. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006.
- 2 Xudayberdiev U.X Xoliqulov A.N. Turdibekov YU.I. Statistika. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Samarqand, SamISI, 2012.
- 3 Burxanov, A. (2023). QISHLOQ XO‘JALIGIDA INNOVATSIYON IQTISODIYOTGA O‘TISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(4), 37-42.
- 4 Xudayberdiev U.X. Statistika. Ma’ruza matnlari. Samarqand, SamISI, 20
- 5 Теория статистики. Учебник. Под ред. Р.А.Шмойловой. –М.: Финансы и статистика, 2005.
- 6 Rasulovna, K. R. (2023). Complex Nickel (II) Compounds Based on Acylhydrazones of Aroyltrifluoracetylmethanes. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(10), 3-5.